

DIDAKTIK ASARLAR TA’LIM OLUVCHILARDA KOMILLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILI SIFATIDA

Andijon davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
Muradaliyeva Shahnoza Mahmudovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19424687>

Annotatsiya. Didaktika – o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish va ta’limning sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy soha bo‘lib, uning asosiy maqsadi talabalarni o‘zlashtirish darajasini yuqorilashdir. Ushbu tezisdagi didaktik tamoyillarni yaratishning nazariy asoslari, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Yaratilgan tamoyillar o‘qitishning samaradorligini oshirishga, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: didaktika, ijtimoiy faol, metod, axloqiy tarbiya, milliy o‘zlik, didaktik tamoyillar, didaktik asarlar, ma’naviy tarbiya, axloqiy rivojlanish.

Abstract. Didactics is a scientific field aimed at the effective organization of the teaching process and improving the quality of education, the main goal of which is to increase the level of student learning. This thesis examines the theoretical foundations of the creation of didactic principles, their role and significance in the educational process. The created principles are aimed at increasing the effectiveness of teaching, as well as developing independent thinking of students.

Key words: didactics, social activist, method, moral education, national identity, didactic works, spiritual education, moral development.

Аннотация. Дидактика –научное направление, направленное на эффективную организацию учебного процесса и повышение качества образования, главной целью которого является повышение уровня усвоения знаний студентов. В данной диссертации рассматриваются теоретические основы создания дидактических принципов, их роль и значение в учебном процессе. Разработанные принципы направлены на повышение эффективности обучения, а также на развитие самостоятельности мышления студентов.

Ключевые слова: дидактика, общественный деятель, метод, нравственное воспитание, национальная идентичность, дидактические произведения, духовное воспитание, нравственное развитие.

Didaktik asarlar tarixan nafaqat adabiyotning muhim yo‘nalishi, balki ta’lim-tarbiyaning ajralmas vositasi sifatida qaralgan. Ayniqsa, bugungi oliy ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya, axloqiy rivojlanish, shaxsiy kamolotga erishish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni shakllantirishda didaktik asarlarning o‘rni beqiyosdir.

Oliy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri — yetuk, bilimli, axloqan pok, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxsni shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan bir qatorda badiiy-didaktik asarlar ham keng qo‘llaniladi.

Albatta, o‘zbek va jahon adabiyotining didaktik namunalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash, talabalarda axloqiy ong, ijtimoiy pozitsiya, adabiy-estetik did va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qiladi. Avvalo, didaktik asarlar talabalarga hayotiy saboq beradi. Masalan, sharq xalqlarining bebaho asarlari sanalgan Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Imom Al Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Fariduddin Attorning “Pandnoma”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy ma’naviy” kabi asarlar orqali talaba nafaqat tarixiy-badiiy tafakkur bilan tanishadi, balki unda ilgari surilgan yuksak g‘oyalarni tahlil qiladi. Bu tahlil faoliyati uni mustaqil fikrlashga, mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Bundan tashqari, didaktik asarlar orqali oliy ta’limda talabalarga didaktik asarlarni o‘qitish orqali quyidagi yutuqlarga erishish mumkin:

1. Axloqiy-tarbiyaviy bilimlarning mustahkamlanishi. Oliy ta’limda jamiyatga yetuk mutaxassis tayyorlash bilan bir qatorda, ijtimoiy ongli, axloqan pok, ma’naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirish maqsadi turadi. Didaktik asarlar bu yo‘lda asosiy vositaga aylanadi.

2. Adabiy-estetik didni shakllantirish. Didaktik asarlarning ko‘pchiligi badiiy asar shaklida bo‘lib, obrazlar, ramzlar, badiiy tasvirlar orqali o‘quvchining estetik zavqini oshiradi. Talaba bunday asarlar orqali badiiy tafakkur va tahliliy salohiyatni o‘zlashtiradi.

3. Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmasining rivojlanishi. Oliy ta’limdagi adabiyot, falsafa, pedagogika, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi yo‘nalishlar didaktik asarlarga murojaat qilgan holda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda xizmat qiladi. Talaba obrazlar orqali jamiyat muammolarini ko‘ra oladi va ularni baholaydi.

4. Milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarga hurmat. Didaktik asarlar, ayniqsa, o‘zbek adabiyotiga mansub bo‘lganlari, talabaning milliy ongini kuchaytiradi. Ular orqali shaxs o‘z xalqining tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlarini anglaydi.

Xulosa qilib aytganda didaktik asarlar badiiy adabiyotning ajralmas qismi bo‘lib, insonlarni ezgulikka, adolatga, axloqiy yetuklikka yo‘naltirishga xizmat qiladi. Ushbu asarlar har bir davrda muhim ahamiyat kasb etib, kishilarga hayotiy tajribalarni o‘rgatgan va ularning ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev J. G‘., Usmonova S. A. Pedagogik texnologiya asoslari .T.: «O‘qituvchi», 2004.-104 b.

2. Каримов К.М. Методика обучения основам вычислительной техники и программированию: Автореф. канд. пед. наук. - Т.: 1991. – 17 с.

3. Mavlonova R. P., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. T.: “O‘qituvchi”, 2001.-510 b.

4. Ahmad Yugnakiy. “Hibat ul-haqoyiq”. –Toshkent: www.ziyo.uz.com kutubxonasi, 18 b.

5. Kaykovus. “Qobusnoma”. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 111 b.

6. www.ziynet.uz